

Yoshlar festivalida viloyat bo'yicha 325 ta turli tadbir o'tkaziladi



Yoshlar festivalida viloyat bo'yicha 325 ta turli tadbir o'tkaziladi

Bugun Surxondaryoda "Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!" shiori ostida boshlangan festival doirasida sektorlar rahbarlari – viloyat prokurori Sadriddin Turdiev Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazida, ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i Abduvohid Ismoilov "Yoshlar markazi"da, davlat soliq boshqarmasi boshlig'i Sirojiddin Eshmatov "Matbuot uyi"da yigit-qizlar bilan ochiq muloqot o'tkazdi. Shuningdek, "Yoshlar va tadbirkorlar" uchrashuvi, yosh tadbirkorlar ishlab chiqargan mahsulotlar ko'rgazmasi, "Quvnoqlar va zukkolar" baxshichilik, "Yosh kitobxon" ko'rik-tanlovlari, milliy sport o'yinlari, otda yurish, otni yogurtirish, ot egarlash musobaqasi singari tadbirlar ham yuksak saviyada o'tkazilmoqda. Eslatib o'tamiz, "Yoshlar oyligi" doirasida mustaqilligimizning 30 yilligiga bag'ishlangan festivalda viloyat bo'yicha 325 ta turli tadbir o'tkaziladi.

Festival joriy yilning 17 iyun yuni yakunlanadi.